# Marketing (kimyo va oziq-ovqat sanoati)

**Ta'lim shakli, ta'lim davri:**
240 kredit to'planadi, sirtqi ta'lim shakli, 5 yil o'qiladi

**Ta'lim klasifikatori:**
marketolog

**Ilmiy izlanish qamrovi:**
kimyo va oziq-ovqat sanoati

**Fakultet:**
Menejment va professional ta'lim

**Mutaxassislik kodi:**
60412500

**Kafedra mudiri:**
Xo'jamurodov Asqarjon Jalolovich simk@tkti.uz

## O'quv dasturining maqsad(lar)i:

Mehnat bozori talablariga javob beradigan, oliy ma'lumotli, yuqori professional malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) bo'yicha mutaxassislarni (bakalvr va magistr) tayyorlash hisoblanadi.

## Professional faoliyatga kirish:

bakalavriat sirtqi ta'lim yo'nalishi– O'zbekiston kimyo va oziq ovqat sanoati korxonalari bilan o'zaro mustahkam aloqalar o'rnatilgan bo'lib, korxonalarda marketing dasturlarini tahlil qilish, rejalashtirish va boshqarish yuzasidan muammolarga yechim topish maqsadida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Magistratura talabalariga korxonalardagi mavjud muammolarga asoslangan dissertatsiya mavzulari berilgan, ular asosan, korxonadagi mavjud marketing faoliyati dasturlarini hamda iste'molchilarga qiymat yaratish va yetkazib berish jarayonlarini muvaffaqiyatli boshqarish imkonini beradi. Marketologning kasbiy faoliyati ishlab chiqarish va xizmatlarni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lib, mahsulot assortimentini tanlash va o'zgartirish, tadbirkorlik faoliyati samaradorligini ta'minlash, shuningdek, mahsulot va narx siyosatini boshqarish salohiyatini yanada oshirishga ko'maklashishga yo'naltirilgan.

# Marketing (kimyo va oziq-ovqat sanoati)

**1-semestr**

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SO'EYT1104 | O'zbekistonning eng yangi tarixi | 4 |
| SIQTN1106 | Iqtisodiyot nazariyasi | 6 |
| SMARK1104 | Marketingga kirish | 4 |
| SXT1106 | Xorijiy til | 6 |
| SMAT1106 | Amaliy matematika | 6 |

**2-semestr**

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SO'RT1204 | O'zbek (rus) tili | 4 |
| SXT1204 | Xorijiy til | 4 |
| SMAT1206 | Amaliy matematika | 6 |
| SITT1206 | Iqtisodiy ta'limotlar tarixi | 6 |
| SIAKT1206 | Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar | 6 |

**3-semestr**

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SDIN2304 | Dinshunoslik | 4 |
| SRQI2306 | Raqamli iqtisodiyot | 6 |
| SMARK2306 | Marketing asoslari | 6 |
| SSTAT2304 | Statistika | 4 |
| SMIKI2304 | Mikro iqtisodiyot | 4 |

**4-semestr**

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SMEN2406 | Menejment | 6 |
| SBUX2406 | Buxgalteriya | 6 |
| SJIXI2406 | Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar | 6 |
| SITA2406 | Iqtisodiy tahlil va audit | 6 |

# Marketing (kimyo va oziq-ovqat sanoati)

## 5-semestr

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SJIXI3506 | Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar | 6 |
| SSTRM3506 | Strategik menejment | 6 |
| SMAKI3504 | Makro iqtisodiyot | 4 |
| SINVM3504 | Innovatsion menejment | 4 |
| **Tanlov fanlar** | | |
| SKBT3504/ | Kichik biznes va tadbirkorlik/ | 4 |
| SMERCh3504 | Merchandayzing | 4 |

## 6-semestr

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SFAL3604 | Falsafa | 4 |
| SBRB3604 | Brendni boshqarish | 4 |
| SIXA3606 | Iste'molchi xulq atvori | 6 |
| **Tanlov fanlar** | | |
| SQQB3604/ SMLA3604 | Qimatli qog'ozlar bozori/ Moliya asoslari | 4 |
| SYTO'R3602 | Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi | 2 |

## 7-semestr

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SKOOM4704 | Oziq - ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish asoslari | 4 |
| SBRB4706 | Brendni boshqarish | 6 |
| SMTS4706 | Marketingda tovar siyosati | 6 |
| **Tanlov fanlar** | | |
| STUK4704/ SSPSS4704 | Tadqiqot usullari va ko'nikmalari SPSS ga kirish | 4 |
| SMKM4704/ SMLB4704 | Marketing menejmenti/ Moliya bozori | 4 |

## 8-semestr

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SSM4804 | Sifat menejmenti | 4 |
| **Tanlov fanlar** | | |
| SXQM4804/ SRQM4804 | Xalqaro marketing/ Raqamli marketing | 4 |
| SKOOM4804/ SKOOS4804 | Kimyo va oziq ovqat maxsulotlarini ishlab chiqarish asoslari/ KOOS korxonalari iqtisodiyoti | 4 |
| SMARA4806/ SREKI4806 | Marketing analitikasi/ Reklama ishi | 6 |

# Marketing (kimyo va oziq-ovqat sanoati)

**9-semestr**

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SMNS5906 | Marketingda narx siyosati | 6 |
| SSMM5906 | SMM marketing | 6 |

**Tanlov fanlar**

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SSRMM5906/<br>SINTM4906 | SRM marketing/<br>Internet marketing | 6 |
| SXTI5904/<br>SXQS5904 | Xalqaro tijorat ishi/<br>Xalqaro savdo | 4 |

**10-semestr**

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SEHFH5104 | Ekologiya va hayot faoliyati havfsizligi | 4 |

**Tanlov fanlar**

| Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|---|---|---|
| SINVB5104/<br>SYIQ5104 | Investitsiyalarni boshqarish/<br>Yashil iqtisodiyot | 4 |
| SRSM5104/<br>SMKT5104 | Risk menejmenti/<br>Marketing tadqiqotlari | 4 |

## Marketing (kimyo va oziq-ovqat sanoati)

# O‘rganish natijalari:

**Bilim va tushunchalar**

**A1** Marketinga oid fanlar, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohasidagi raqamli marketing fanlarni o‘rganadi

**A2** Tarmoqlar va sohalar korxonalari, tashkilotlar, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarida marketing faoliyatini tashkil etishga oid tushunchalarni o‘rganadi va tadbiq etadi

**A3** Ishlab chiqarishni va xizmat ko‘rsatishda marketing faoliyatini tashkil etish, bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholashni bajaradi

**A4** Korxona va kompaniyalarda marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish; korxonada marketing loyihalarni rejalashtirish va boshqarishmarketing bo‘limini tarkibiy tuzilishining optimal variantlarini tanlash, kompaniya, korxonalarda marketing boshqaruv tizimini loyihalashtirish kabi bilam va ko‘nikmaga ega bo‘ladi

**Texnologik tahlil**

**B1** Marketing faoliyatni tashkil etish va amalga oshirish qobiliyatiga ega

**B2** Marketing tizimi, korxonalarining marketing siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonlari tushuntirish qobiliyatiga ega

**B3** Korxonalar marketing-boshqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish tushuntirish qobiliyatiga ega bo‘ladi

**B4** Aniq marketing loyihani bajarish uchun tashkil etilgan jamoa va guruhlarni tezkor ravishda boshqarish, ishlab chiqarish tarmoqlari va industrial tarmoq korxonalariga investitsiyalarni jalb etish loyihalarini ishlab chiqish va uni boshqarishni amalga oshiradi.

**Texnologik dizayn**

**C1** Yechilayotgan ilmiy muammolarlarning konseptual hamda nazariy marketing modellarini ishlab chiqish bo‘yicha ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishning faoliyat ko‘lamini qamrab oladigan masalalarni hal qiladi.

**C2** Iqtisodiyotning tarmoqlari, ishlab chiqarish va noishlab chiqarish majmualari, korporatsiyalar, konsernlar, xolding, ishlab chiqarish birlashmalari marketing faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalar shakllantiradi

**Tadqiqot**

**D1** Ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o‘tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

**D2** Ilmiy maqolalar, ma’ruzalar, risola, o‘quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish

**D3** Ilmiy adabiyotlar va internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;

**D4** Ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o‘tkazish hamda faol ishtirok etish;

**D5** Mos mutaxassislik mavzusi bo‘yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

**D6** Ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o‘qitishning texnik vositalaridan foydalanib o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish

**Amaliy tadbirlar**

**E1** Namunaviy marketing jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo‘llash;

**E2** Ilmiy va amaliy faoliyatda sohaga mos tizimni rivojlantirish va ulardan foydalanish;

**E3** Marketing faoliyati natijalari bo‘yicha ma’lumotlarni qayta ishlash usullaridan foydalanish va monitoringini olib borish;

**E4** Fan va texnika yutuqlarini marketing jarayoniga tadbiq etish;

**E5** Iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni baholash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

**E6** Amaliy faoliyatda instrumental vositalarni va ishlab chiqarish muhitini takomillashtirish qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.

**Shaxsiy ko‘nikmalar**

**F1** Ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo‘lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi

**F2** Xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana biladi.

**F3** Yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila oladi

**F4** O‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana oladi

**F5** O‘z faoliyatida me’yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o‘zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila biladi

**F6** Internet tarmog‘idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo‘lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko‘nikmalariga ega bo‘ladi;

**F7** Raqamli iqtisodiyot texnologiyalaridan foydalana olish, axborotlashgan jamiyat sharoitida raqamli iqtisodiyotning mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarini anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi